TILSHUNOSLIK

UDK: 81’373.421 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a128

TILSHUNOSLIKDA SINONIMIYANING O‘RGANILISHI VA UNING TURLARIGA OID OLIMLARNING QARASHLARI

ИЗУЧЕНИЕ СИНОНИМИИ В ЯЗЫКОЗНАНИИ И ВЗГЛЯДЫ УЧЕНЫХ НА ЕЕ ВИДЫ

THE STUDY OF SYNONYMY IN LINGUISTICS AND THE VIEWS OF SCIENTISTS ON ITS TYPES

Abdulxayeva Malika Maratovna[1]

[1]**Abdulxayeva Malika Maratovna** – Mirzo Ulug‘bek nomidagiO‘zbekiston Milliy universiteti, Fakultetlararo ingliz tili kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya

XX asr sinonimiya sohasi uchun oltin davr bo‘ldi. Mashhur tilshunos olimlar o‘z qarashlariga ilmiy yondashgan holda ko‘plab asarlar yaratdilar. Natijada hozirgi davr lingvistlari, tadqiqotchilari uchun haqiqiy maktab bo‘la oladigan ma’lumotlar qoldi. Yaratilgan asarlarda sinonimiya hodisasi, sinonimik munosabatlar, ularning turlari o‘sha davr talabidan kelib chiqib yozilgan bo‘lsa, hozirgi kunda ular semantika sohasining markaziy masalalaridan biri bo‘lib, ularga berilayotgan ta’rif va tasniflar avvalgidan ham kengroq ma’noni anglata boshladi. Ushbu maqolada jahon tilshunos olimlarining semantik kategoriyalardan biri bo‘lgan sinonimiyaga doir qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, ular tomonidan berilgan ta’rif va tasniflarning o‘xshash va farqli tomonlari keltirilgan. Yillar o‘tgani sari tadqiqotlar ko‘lami kengayib, sinonimlarga berilgan ta’riflar sayqallanib borgani ko‘rib chiqilgan.

Аннотация

XXвек стал золотым веком для области синонимии. Известные лингвисты создали множество работ, придерживаясь научного подхода к своим взглядам. В результате остались данные, которые могут стать настоящей школой для лингвистов, исследователей современности. Если в созданных работах феномен синонимии, синонимических отношений, их виды писались исходя из требований того времени, то в настоящее время они являются одним из центральных вопросов области семантики, а данные им определения и классификации стали иметь более широкое значение, чем прежде. В данной статье анализируютсявзгляды мировых лингвистов на синонимию, которая является одной из семантических категорий. Также перечислены сходства и различия в определениях и классификациях, которые они дают. Рассмотрено то, что с годами масштабы исследований расширились, а определения синонимов стали более отточенными.

Abstract

The 20th century was a golden age for the field of synonymy. Famous linguists have created many works, adhering to a scientific approach to their views. As a result, data remained that can become a real school for linguists, researchers of our time. If in the created works the phenomenon of synonymy, synonymic relations, their types were written based on the requirements of that time, then at present they are one of the central issues in the field of semantics, and the definitions and classifications given by them have become more widespread than before. This article analyzes the views of world linguists on synonymy which is one of the semantic categories. Similarities and differences in the definitions and classifications are also given. It is considered that over the years, the scope of research has expanded, and the definitions of synonyms have become more refined.

Kalit so‘zlar: *sinonimiya, sinonim, absolyut sinonim, kognitiv sinonim, plesionim, yaqin sinonim.*

Ключевые слова: *синонимия, синоним, абсолютный синоним, когнитивный синоним, плесионим, квази синоним.*

Key words: *synonymy, absolute synonymy, cognitive synonymy, plesionymy, near-synonymy.*

KIRISH

Semasiologiyaning fan sifatida e’tirof etilishi ayniqsa o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab sinonimiya hodisasini jiddiyroq tadqiq qilishga olib keldi. Bugungi kungacha dunyo tilshunosligida sinonimiya tushunchasiga aniqlik kiritish uchun olib borilgan ilmiy izlanishlar ko‘lami shunchalik kengki, ularni barchasiga to‘xtalishni imkoni yo‘q.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, tilshunos olimlar tomonidan sinonimiyaning turlari ajratilib, har bir turning farqli jihatlari tavsiflangan. Biroq, bu ishlarda sinonimiyaga turlicha ta’rif berilganligi, sinonimlarni tasniflashda har xillikka yo‘l qo‘yilganligi kuzatiladi. Jumladan, mashhur ingliz tilshunosi A.Kruz sinonimlarga quyidagicha ta’rif

bergan: «The lexical relation which parallels identity in the membership of two classes is, of course, synonymy».[1]

Demak, A.Kruz tomonidan keltirilgan ta'rifdan shuni anglash mumkinki, sinonimiya deganda o'ziga xos bir xillikka ega bo'lgan leksik munosabat tushuniladi.

Yana bir tilshunos J.Layons sinonimlarni quyidagicha izohlagan: «Synonyms are expressions with the same meaning». This statement can serve as a means of starting to discuss the division between some of the traditional and strict definitions of synonyms as «words identical in their meaning» and the more recent or broader ones which take into consideration all the components of synonyms, such as denotation, connotation, stylistic value, collocation, etc»[2]

Ta'rifdan ko'rinadiku, sinonimlar bir xil ma'no anglatuvchi so'zlar. Olim bu nazariya haqida fikr bildirar ekan, bu sinonimlarga berilgan an'anaviy va qat'iy ta'riflar orasida baxsni keltirib chiqazishini inkor etmaydi.

Shuningdek, tilshunos S.Grinbaumning fikri ham diqqatga sazovor: "synonyms are expressions that are identical or similar in meaning and that can be used interchangeably in at least one context". This explanation still is not satisfactory because of the ambiguous terms "similar" and "identical".[3]

Mazkur ta'rifda olim sinonimlar bir xil yoki o'xshash ma'noga ega so'zlar ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, S.Grinbaum sinonimlar kamida bitta kontekstda bir-birining o'rnida ishlatila olishi kerakligini qo'shimcha qiladi.

Rus tilshunos olimi D.Shmelev esa sinonimlarni gapdagi ma'no munosabatiga ko'ra tadqiq qiladi va quyidagi xulosaga keladi: «Синонимы можно определить, как слова, относящиеся к той же части речи, значения которых содержат тождественные элементы, различающиеся же элементы устойчиво нейтрализуются в определенных позициях. Иначе говоря, синонимами могут быть признаны слова, противопоставленные лишь по таким семантическим признакам, которые в определенных контекстах становятся несущественными. ..»[4]

Demak, sinonimlar bir so'z turkumiga kiruvchi, bir xil ma'noviy xususiyatlarni o'z ichiga oladigan so'zlar hisoblanadi.

Yana bir mashhur rus tilshunoslaridan biri D.Rozental sinonimlarga ta'rif berar ekan, shunday deydi: «Синонимы – слова, близкие или тождественные по своему значению, выражающие одно и то же понятие, но различающиеся или оттенками значения, или стилистической окраской, или и тем и другим. Синонимы, как правило, принадлежат к одной и той же части речи и выступают как взаимозаменяемые элементы высказывания».[5]

D.Rozental sinonimlar ma'no jihatdan yaqin, bir xil tushunchani ifodalovchi, ammo ma'no ottenkasi yoki uslubiy bo'yog'i yoki har ikkalasi bilan farq qiluvchi so'zlar ekanligini qayd etadi. Shuningdek, olim sinonimlar bir so'z turkumiga qarashini va gapning o'rnini bosuvchi element sifatida ishlashini ta'kidlaydi.

Z.Aleksandrova ham hamkasblarini ilmiy qarashini ma'qullaganini ko'rishimiz mumkin: «Синонимами считаются слова, выражающие одно и то же понятие, тождественные или близкие по значению, отличающиеся друг от друга оттенками значения, принадлежностью к тому или иному стилистическому слою языка и экспрессивной окраской.»[6]

Z.Aleksandrova sinonimlar bir xil tushunchani ifodalovchi, bir xil yoki yaqin ma'noli, ma'no ottenkasi bilan bir-biridan farq qiluvchi, tilning u yoki bu stilistik qatlamiga tegishli bo'lgan so'zlar ekanligini keltiradi.

Keltirilgan ta'riflardan shuni anglash mumkinki, sinonimiya turli talqinlarga ega bo'lgan ancha murakkab til hodisasi hisoblanadi. Shuningdek, T.Vinokur faqat lug'atda berilgan ma'nodosh so'zlarni sinonim deb hisoblash mumkinligini ta'kidlaydi: «...Так называемая синонимичность средств языка, если иметь дело не с лингвистической абстракцией, а с живым и реальным языком, с тем языком, который фактически существует в истории, является просто-напросто фикцией. Синоним является синонимом только до тех пор, пока он находится в словаре. Но в контексте живой речи нельзя найти ни одного положения, в котором было бы все равно, как сказать: конь или лошадь, ребенок или дитя, дорога или путь и т. д.»[7]

Ta'rifdan anglashimiz mumkinki, olim sinonim faqat lug'atda bo'lsagina sinonim hisoblanishini ta'kidlaydi.

Hamkasblaridan farqli o‘laroq, A.Ufimtseva va A.Reformatskiy kabi mashhur tilshunoslar tilda ma’noni anglatuvchi bir xil so‘zlar yo‘q deb hisoblashgan: «Синонимы – лексемы, связанные между собой общностью в их семантическом содержании, независимо от того, идет ли отождествление по всему смысловому объему или одному из значений отождествленных лексических единиц»[8]

«Синонимы могут существовать в языке при соблюдении формулы: «то же, да не то же», т. е. два слова, совпадая в одном, расходятся в другом. Если бы синонимы были целиком «то же», то сосуществование их потеряло бы смысл, это было бы не обогащение словарного состава, а, наоборот, его засорение».[9]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqorida tilshunos olimlar tomonidan sinonimiyaga berilgan ta’riflar bir-birini inkor etmaydi, balki yillar o‘tgani sari tadqiqotlar ko‘lami kengayib ta’riflar biri o‘rnini ikkinchisi to‘ldirganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa sinonimiya hodisasining mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Sinonimiya sohasini ilmiy nuqtai nazardan ishlab chiqqan va sinonimiyaning turli darajalarini tasniflagan ilk tilshunoslardan biri A.Kruz o‘zining “Leksik semantika” nomli kitobida sinonimiyaga batafsil to‘xtalib o‘tadi. Olim sinonimlarni uch “absolyut”, “kognitiv”, “plesionim” turga ajratib, absolyut sinonimlar haqida fikr yuritar ekan, ularni bor ekanligiga shubha bilan qaraydi.

Shuningdek, sinonimiya sohasiga o‘zining ilmiy qarashlari bilan kirib kelgan J.Layons[10] sinonimni turlarga ajratar ekan, *absolyut sinonimiya (absolute synonymy)* termini o‘rnida *mutlaq sinonimiya (total synonymy)* va *to‘liq sinonimiya (complete synonymy)* atamalarini qo‘llab, ular tilda mavjud emasligini ta’kidlab, kognitiv sinonimlarga e’tibor qaratadi.

Hamma tilshunoslar tilda absolyut sinonimlar borligini birday qayd etishmaydi. Rus semasiologi D.N.Shmelev hatto, tilda absolyut sinonimlar bo‘lmasligini aytishgacha boradi. M.Mirtojiyev bunga fikr bildirar ekan shunday deydi: “O‘zbek tilida ***lingvist / tilshunos, qarsak / chapak, shoti / norvon, sinchalak / chittak, o‘qituvchi / muallim, askar / soldat, sivizg‘a / nay*** kabi so‘z juftliklari borki, ular ma’no jihatidan bir-biridan mutlaqo farq qilmaydi. Ular ayni bir xil leksik ma’noga ega sinonimlardir. Bu til faktlari o‘z-o‘zidan D.N.Shmelevning fikriga teskaridir. D.N.Shmelev o‘z fikrini rus tili nuqtai nazaridan bildirgan, muallifingiz keltirgan misollar o‘zbekcha, deb e’tiroz bildirish mumkin. Bunga ham javob berish mumkin. Undan o‘n yil burun – 1054 yil L.A.Bulaxovskiy *битва / сражение (’jang‘ ma’nosida), языкознание / языковедение (’tilshunoslik’ ma’nosida), красть / воровать (’o‘g‘irlamoq’ ma’nosida), самолёт / аэроплан* so‘z juftliklarini o‘zaro absolut sinonimlar deb ko‘rsatgan edi. D.N.Shmelev bularga nisbatan munosabat bildirmagan.”[11]

D.N.Shmelev rus tilida absolyut sinonimlar bo‘lmasligiga qo‘shimcha qilib, boshqa tillarda ham mavjud emasligini ta’kidlaydi. Bu fikr ko‘pchilik tilshunos olimlar tomonidan ma’qullanmadi. Shu o‘rinda biz ham bu fikrga qo‘shilmaymiz. Absolyut sinonimlar tilda juda kam uchrashini inkor qilib bo‘lmaydi albatta, lekin ular mutlaqo yoq digani emas. Bunday sinonimlar asosan terminlarda uchraydi, chunki ularning leksik ma’nosida biror nutq uslubiga xoslanish, emotsional-ekspressiv bo‘yoqni ko‘rsatish kuzatilmaydi. Ular ma’nosi signifikatga nisbatan farqlanmas ekan, absolyut sinonim bo‘lishi tabiiy. Masalan, ***lingvist — tilshunos*** so‘zlarini olsak. Bu so‘zlar aynan bir xil ma’noni ifodalaydi. Lingvist leksemasi kitobiy uslubga xoslanib qolganligiga qaramasdan, ular absolyut sinonimlar hisoblanadi.

Yana bir mashhur olim Linn Merfi sinonimlarni ikki ***logical synonym*** va ***near-synonym***[12] turlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sinonimiya sohasida salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilganligiga qaramasdan, ularni turlarga ajratishda hali hanuz yakdil fikr yo‘q. Bu kabi masalalarni albatta tabiiy til materiallari, lug‘atlardagi izohlarning mukammalligiga ko‘ra tahlil qilib, ularning nutqimizda qay darajada faol yoki nofaol ekanligini e’tiborga olgan holda tadqiqotchilarimiz amalga oshirishlari lozim deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cruse. A. Lexical Semantics. Cambridge: Cambridge University Press. — 1986. – P.88. (Kruz A. Leksik semantika. Kembrij: Kembrij Universiteti Nashriyoti. 1986. – 88 b.)

2. Lyons, J. Linguistic Semantics. Cambridge: Cambridge University Press. – 1995. P.25. (Layons J. Lingvistik Semantika. Kembrij: Kembrij Universiteti Nashriyoti. 1995. – 25 b.)

3. Greenbaum, S. Oxford English Grammar, Oxford: Oxford University Press. — 1996. – P.420. (Grinbaum S. Oksford ingliz tili grammatikasi. Oksford: Oksford Universiteti Nashriyoti.– 1996. – 420 b.)

4. Шмелев Д.Н. Современный русский язык: Лексика. М.: Просвещение- 1977. – С.55. (Shmelev D.N. Zamonaviy rus tili: Leksika. M.: Ma'rifat – 1977. – 55 b.)

5. Розенталь Д. Э., Голуб И. Б., Теленкова М. А. Современный русский язык: Учебное пособие. 2-е изд. М.: Международные отношения, 1994. — 560 с. (Rozental D.E., Golub I.B., Telenkova M.A. Zamonaviy rus tili: Darslik. 2-nashr. M.: Xalqaro munosabatlar. 1994. – 560 b.)

6. Александрова З.Е. Словарь синонимов русского языка. Москва. Издательство: Русский язык. 2001. С.6. (Aleksandrova Z.E. Rus tili sinonimlari lug'ati. Moskva. Nashriyot: Rus tili. 2001. – 6 b.)

7. Винокур Г.О. Проблема культуры речи. «Русский язык в советской школе» 1929. № 5. С. 82–92. (Vinokur G.O. Nutq madaniyati muammosi. «Sovet maktabidagi rus tili» 1929. № 5. 82–92 betlar.)

8. Уфимцева А.А. Слово в лексико-семантической системе языка. – Москва: Наука, 1968. – с. 272. (Ufimtseva A.A. Tilning leksik-semantik tizimidagi so'z. – Moskva: Fan. 1968. – 272 b.)

9. Реформатский А.А. Введение в языковедение. — М.: Академия, 1997. – С.488. (Reformatskiy A.A. Tilshunoslikka kirish. – M.: Akademiya. 1997. – 488 b.)

10. Lyons,J. Introduction to Theoretical Linguistics. Cambridge Univeristy Press. — 1968. — P.450. (Layons J. Nazariy tilshunoslikka kirish. Kembrij Universiteti Nashriyoti. – 1968. – 450 b.)

11. Mirtojiyev.M. O'zbek tili semasiologiyasi. Toshkent. MUMTOZ SO'Z. — 2010. – 191 b. (Mirtojiev M. Semasiology of the Uzbek language. Tashkent. Classic word. – 2010. – p.191.)

12. Murphy, M. L. Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy and Other Paradigms. New York: Cambridge Univeristy Press. — 2003. – P.155. (Merfi M.L. Semantik munosabatlar va leksika: antonimiya, sinonimiya va boshqa paradigmalar. Nyu-York: Kembrij universiteti matbioti. 2003. – 155 b.)